



EVOLUTION OF THE CONCEPTS OF THE ‘PERFECT HUMAN’ IN THE HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL HERITAGE OF JAPAN

Farhodjon Khabibloyevich Kurbonov

Lecturer, Department of Social Sciences, Alfraganus University

Email: ganbarefarhod@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: perfect man, Japanese philosophy, Shintoism, Buddhism, Confucianism, Bushido, spiritual perfection, moral values, individualism, modernization, Meiji period, Fukuzawa Yukichi, social responsibility, philosophical heritage.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article presents a comprehensive scholarly analysis of the formation and evolution of the concept of the “perfect human” in Japan’s historical and philosophical heritage. The study examines ideas of natural harmony developed within Shintoism (神道 - shinto), approaches to spiritual perfection in Buddhism (仏教 - bukkyō), as well as the ethical norms of Confucianism (儒教 - jukyō) and interpretations of the human ideal within the ethical system of Bushidō (武士道), applying a comparative-philosophical method. The research also analyzes the processes of modernization following the Meiji Restoration (明治) period, as well as the ideas of individualism and enlightenment reflected in the works of Fukuzawa Yukichi. The findings demonstrate that the concept of the “perfect human” in Japan emerged as a synthesis of religious, ethical, and social values, and in the modern era it is manifested in the integration of personal freedom, social responsibility, and intellectual maturity.

This study contributes to a systematic understanding of the evolutionary development of ideas about human perfection in Japanese philosophical thought and deepens the comprehension of intercultural interpretations of the “perfect human” concept.

YAPONIYA TARIXIY-FALSAFIY MEROSIDA “KOMIL INSON” HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI

Farhodjon Xabibloyevich Qurbonov

Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Email: ganbarefarhod@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: komil inson, yapon falsafasi, Sintoizm, Buddaviylik, Konfutsiylik, Bushido, ma'naviy kamolot, axloqiy qadriyatlar, individualizm, modernizatsiya, Meydzi davri, Fukuzawa Yukichi, ijtimoiy mas'uliyat, falsafiy meros.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida “komil inson” konsepsiyasining shakllanishi va evolyutsiyasi kompleks ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sintoizm (神道 -shinto) asosida shakllangan tabiiy uyg'unlik g'oyalari, Buddaviylik (仏教 -bukkyo) ta'limotining ruhiy kamolotga doir yondashuvlari, shuningdek Konfutsiylik (儒教 -jukyo) axloqiy me'yorlari va Bushido (武士道) etikasi tizimining inson idealiga doir talqinlari qiyosiy-falsafiy metod asosida o'rganiladi. Shuningdek, Meydzi (明治) tiklanish davridan keyingi modernizatsiya jarayonlari hamda Fukuzawa Yukichi qarashlarida ifodalangan individualizm va ma'rifatparvarlik g'oyalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Yaponiyada “komil inson” konsepsiyasi diniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar sintezi sifatida shakllanib, zamonaviy davrda esa shaxsiy erkinlik, ijtimoiy mas'uliyat va intellektual yetuklik uyg'unligida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Ushbu ish Yapon falsafiy tafakkurida inson kamoloti haqidagi qarashlarning evolyutsion rivojlanishini tizimli yoritish orqali komil inson konsepsiyasining madaniyatlararo talqinlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

ЭВОЛЮЦИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О “СОВЕРШЕННОМ ЧЕЛОВЕКЕ” В ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКОМ НАСЛЕДИИ ЯПОНИИ

Фарходжон Хабиблович Курбонов

Преподаватель кафедры социальных наук

Университет Альфраганус

Email: ganbarefarhod@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬ

Ключевые слова: совершенный человек, японская философия, синтоизм, буддизм, конфуцианство, бусидо, духовное совершенство, моральные ценности, индивидуализм, модернизация, период Мэйдзи, Фукудзава Юкити, социальная ответственность, философское наследие.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный научный анализ формирования и эволюции концепции «совершенного человека» в историко-философском наследии Японии. В исследовании рассматриваются идеи естественной гармонии, сформированные на основе синтоизма (神道 – shinto), подходы к духовному совершенствованию в буддизме (仏教 – bukkūō), а также этические нормы конфуцианства (儒教 – jūkyō) и трактовки идеала человека в системе этики бусидо (武士道) с применением сравнительно-философского метода. Также анализируются процессы модернизации после периода Реставрации Мэйдзи (明治) и идеи индивидуализма и просветительства, отражённые в трудах Фукудзавы Юкити. Результаты исследования показывают, что концепция «совершенного человека» в Японии сформировалась как синтез религиозных, этических и социальных ценностей, а в современную эпоху проявляется в единстве личной свободы, социальной ответственности и интеллектуальной зрелости.

Данная работа способствует системному осмыслению эволюционного развития представлений о человеческом совершенстве в японской философской мысли и углубляет понимание межкультурных интерпретаций концепции «совершенного человека».

Kirish. Zamonaviy tadqiqotlarda inson kamoloti masalasi turli madaniyatlar kesimida qayta ko‘rib chiqilayotgan dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Sharq falsafiy tafakkurida shakllangan “komil inson” konsepsiyasi nafaqat axloqiy ideal, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniy uzviylikni ta’minlovchi muhim kategoriyalardan biri sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida inson mukammalligi haqidagi tasavvurlarni rivojlanish jarayon sifatida o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Yapon tafakkuri o ‘zining sintez xususiyati bilan ajralib turadi. Unda mahalliy diniy qarashlar – Sintoizm (神道-shinto), tashqi ta’ sir sifatida kirib kelgan Buddaviylik (仏教-

bukkyo) va Konfutsiylik g'oyalari o'zaro uyg'unlashib, inson kamolotiga doir o'ziga xos konseptual modelni shakllantirgan. Mazkur modelda insonning mukammalligi faqat individual ruhiy yetuklik bilan emas, balki uning jamiyatdagi o'rni, burch va mas'uliyatni anglash darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois yapon falsafasida "komil inson" tushunchasi ko'p qatlamli va tarixiy jihatdan dinamik xarakterga ega.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv sharoitida turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi ma'naviy qadriyatlar almashinuvi kuchayib borar ekan, inson kamoloti haqidagi milliy-falsafiy qarashlarni qiyosiy va tarixiy asosda o'rganish zarurati ortmoqda. Yapon tajribasi esa bu borada o'ziga xos namuna bo'lib, unda an'ana va modernizatsiya uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, samuraylik etikasi - Bushido (武士道) tizimi orqali shakllangan iroda, sadoqat va sharaf tamoyillari keyinchalik modern davrda ham ma'naviy qadriyat sifatida saqlanib qolgan.

Meiji tiklanishi davridan boshlab Yaponiyada yuz bergan tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar inson idealiga yangicha mazmun kiritdi. Ushbu davrda Fukuzawa Yukichi kabi mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan ma'rifatparvarlik va individualizm g'oyalari "komil inson" tushunchasining yangi - intellektual va erkin shaxs modelini shakllantirishga xizmat qildi. Natijada, an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan zamonaviy g'oyalar o'rtasida murakkab, ammo samarali integratsiya yuzaga keldi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida "komil inson" haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilish, ularning mazmuniy transformatsiyasini aniqlash hamda zamonaviy davrdagi talqinlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida qadimgi diniy qarashlardan boshlab zamonaviy falsafiy yondashuvlargacha bo'lgan konseptual o'zgarishlarni o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash va umumiy nazariy xulosalar chiqarish belgilangan.

Shu bilan birga, ushbu maqola Yapon falsafiy tafakkurida inson kamoloti masalasining evolyutsiya rivojlanishini kompleks yondashuv asosida yoritishga qaratilgan bo'lib, u nafaqat mintaqaviy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega nazariy xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida "komil inson" konsepsiyasiga oid ilmiy izlanishlar turli metodologik yondashuvlar asosida shakllangan bo'lib, ular diniy-falsafiy, axloqiy hamda ijtimoiy kontekstlarda o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar, avvalo, Yapon tafakkurining asosiy manbalari - Sintoizm (神道-shinto), Buddaviylik (仏教-bukkyo) va Konfutsiylik (儒教-jukyo) doirasida olib borilganligi bilan xarakterlanadi.

Ilk tadqiqotlarda komil inson tushunchasi ko‘proq diniy-ontologik nuqtai nazardan talqin etilgan. Xususan, sintoistik qarashlarda insonning mukammalligi uning tabiiylikka yaqinligi, ichki pokligi va “kami-神” bilan uyg‘unligi orqali belgilanadi[1]. Bu yondashuvda inson tabiatning ajralmas qismi sifatida ko‘rilib, uning axloqiy yetukligi tashqi ijtimoiy mezonlardan ko‘ra ko‘proq ichki ruhiy holat bilan bog‘lanadi.

Buddaviylik, ayniqsa Zen -禪 an‘analari doirasida olib borilgan tadqiqotlarda esa inson kamoloti ruhiy uyg‘unish va ongni tozalash jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu borada Teitaro Suzukining ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. U Zen-buddizmni G‘arb falsafasi bilan qiyosiy tahlil qilib, insonning ichki erkinligi va intuitiv bilish qobiliyatini komillik mezoni sifatida asoslaydi[2].

Konfutsiychilik ta‘sirida shakllangan ilmiy adabiyotlarda esa komil inson tushunchasi ijtimoiy-axloqiy kategoriyalar orqali izohlanadi. Tokugava davriga oid tadqiqotlarda Yamazaki Ansai va Ogyu Sorai qarashlari muhim o‘rin tutadi. Ular inson mukammalligini jamiyatdagi burch va mas‘uliyatni anglash, ijtimoiy tartibni saqlash bilan bog‘laydi[3].

Yaponiyada komil inson idealining yana bir muhim qirrasini samuraylik madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalish Bushido etikasi tizimi orqali o‘rganiladi. Nitobe Inazo tomonidan yozilgan “Bushido: The Soul of Japan” asarida samuray axloqining asosiy tamoyillari tizimlashtirilib, u inson kamolotining o‘ziga xos modeli sifatida talqin etiladi[4]. Zamonaviy tadqiqotchilar esa ushbu konsepsiyani tarixiy va ideologik konstruktsiya sifatida qayta ko‘rib chiqib, uning shakllanish jarayonidagi ijtimoiy omillarni ochib berishga harakat qilganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa Meiji tiklanish davridan keyin, Yaponiyada inson idealiga doir qarashlar sezilarli darajada transformatsiyaga uchraydi. Bu jarayonni o‘rganishda Fukuzawa Yukichi ning asarlari muhim manba hisoblanadi. U inson kamolotini ta‘lim, mustaqil fikrlash va shaxsiy erkinlik bilan bog‘lab, yangi - zamonaviy shaxs modelini ilgari suradi[5].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda esa Yaponiyada “komil inson” konsepsiyasi ko‘proq qiyosiy-falsafiy va madaniyatlararo yondashuvlar asosida tahlil qilinmoqda. Tadqiqotchilar ushbu tushunchani Sharq va G‘arb falsafiy an‘analari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir mahsuli sifatida baholaydilar. Shu bilan birga, postmodern yondashuvlar doirasida komillik tushunchasining tarixiy shartlanganligi va ijtimoiy konstruktsiya sifatidagi tabiati ham muhokama qilinmoqda[6].

Ayrim mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadqiqotlarda “komil inson” konsepsiyasi alohida falsafiy yoki diniy tizimlar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, ularning o‘zaro

bog‘liqligi va evolyutsion rivojlanishi yetarli darajada kompleks yoritilmagan. Ayniqsa, an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy g‘oyalar o‘rtasidagi uzviylikni tizimli tahlil qilishga qaratilgan ilmiy ishlar nisbatan kam uchraydi.

Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida “komil inson” haqidagi tasavvurlar yagona evolyutsion jarayon sifatida kompleks va tizimli tahlil qilinadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida “komil inson” konsepsiyasining shakllanishi va evolyutsiyasini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda fanlararo va ko‘p darajali metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi falsafa, dinshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllantirildi va nazariy hamda interpretativ tahlil usullariga asoslandi. Dastlabki tahlil tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tarixiylik va tizimlilik tamoyillari tashkil etadi. Tarixiylik asosida Yapon tafakkurida “komil inson” haqidagi tasavvurlar turli davrlar kesimida izchil ravishda o‘rganildi. Bu yondashuv orqali qadimgi diniy qarashlardan boshlab zamonaviy falsafiy talqinlargacha bo‘lgan evolyutsion jarayon rekonstruksiya qilindi. Xususan, Sintoizm (神道-shinto), Buddaviylik (仏教-bukkyo) va Konfutsiylik (儒教-jukyō) ta’limotlari doirasida shakllangan inson kamoloti haqidagi qarashlar tarixiy kontekstda tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv esa “komil inson” konsepsiyasini alohida elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi g‘oyalar majmui sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Shu asosda Yapon falsafiy tafakkurida inson idealini shakllantiruvchi diniy, axloqiy va ijtimoiy komponentlar o‘rtasidagi uzviylik aniqlashtirildi. Jumladan, samuraylik etikasi – Bushido (武士道) alohida tizim sifatida emas, balki umumiy madaniy-falsafiy kontekstning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda, shuningdek, qiyosiy-falsafiy metod muhim o‘rin tutadi. Ushbu metod yordamida Yaponiyada shakllangan “komil inson” konsepsiyasi boshqa Sharqiy va G‘arbiy falsafiy an‘analardagi inson idealiga doir qarashlar bilan solishtirildi. Bu yondashuv Yapon modelining o‘ziga xos jihatlarini, xususan, undagi uyg‘unlik, ijtimoiy mas’uliyat va ichki intizomning ustuvorligini aniqlash imkonini berdi.

Interpretativ (germenevtik) metod esa asosiy matnlar va falsafiy manbalarni tahlil qilishda qo‘llanildi. Bu jarayonda Yapon mutafakkirlari, xususan Fukuzawa Yukichi asarlari, shuningdek Zen-buddizm va konfutsiychilikka oid matnlar mazmuniy jihatdan tahlil qilinib, ulardagi inson

kamolotiga oid tushunchalar ochib berildi. Germenevtik yondashuv orqali matnlarning tarixiy va madaniy kontekstdagi ma'nosi chuqurroq talqin qilindi.

Qo'shimcha sifatida, tadqiqotda diskursiv tahlil usuli ham qo'llanilib, "komil inson" tushunchasining turli davrlarda qanday ma'no yuklamalari bilan boyiganligi, uning semantik transformatsiyasi o'rganildi. Ayniqsa, Meydzi tiklanish davridan keyingi modernizatsiya jarayonida ushbu tushunchaning mazmunan kengayishi va yangi ijtimoiy-falsafiy kontekstda qayta talqin qilinishi tahlil etildi.

Tadqiqotning empirik bazasini klassik diniy matnlar, falsafiy traktatlar, tarixiy manbalar hamda zamonaviy akademik adabiyotlar tashkil etadi. Ushbu manbalar tanlanishda ularning ilmiy ishonchliligi, representativligi va mavzuga bevosita aloqadorligi mezon sifatida belgilandi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida "komil inson" konsepsiyasi murakkab, ko'p qatlamli va izchil evolyutsion jarayon mahsuli ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ushbu tushuncha bir vaqtning o'zida diniy, axloqiy va ijtimoiy-falsafiy omillar ta'sirida shakllanib, turli tarixiy bosqichlarda mazmunan boyib borgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, dastlab Sintoizm (神道-shinto) doirasida komil inson tabiiy uyg'unlik va ichki poklik timsoli sifatida talqin etilgan bo'lsa, Buddaviylik (仏教-bukkyo) ta'sirida bu tushuncha ruhiy kamolot va ongni poklash g'oyalari bilan boyigan. Keyingi bosqichda Konfutsiylik (儒教-jukyō) orqali inson mukammalligi ijtimoiy burch, mas'uliyat va axloqiy me'yorlarga rioya qilish bilan bog'langan. Samuraylik madaniyatida esa Bushido (武士道) etikasi orqali komil inson obrazi iroda, sadoqat va sharaf kabi qadriyatlar asosida shakllangan.

Xulosa va tavsiyalar. XIX asrda yuz bergan Meydzi tiklanish jarayoni ushbu konsepsiyaning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda Fukuzawa Yukichi tomonidan ilgari surilgan g'oyalar asosida komil inson modeli individual erkinlik, ta'lim va intellektual rivojlanish bilan uyg'unlashdi. Natijada, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasida sintez yuzaga kelib, bugungi Yapon jamiyatida o'z aksini topgan kompleks inson ideali shakllandi.

Umuman olganda, tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

- Yaponiyada "komil inson" tushunchasi monolit emas, balki tarixiy jarayonda transformatsiyalashgan dinamik konsepsiyadir;
- Ushbu konsepsiya diniy (Sintoizm, Buddaviylik), axloqiy (Konfutsiychilik) va ijtimoiy (Bushido) tizimlarning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllangan;

- Modernizatsiya jarayonlari ushbu tushunchani individualizm va ma'rifatparvarlik tamoyillari bilan boyitgan;

Zamonaviy talqinda komil inson modeli shaxsiy erkinlik, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy yetuklikning uyg'unligi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy bo'shliqlar va istiqbolli yo'nalishlar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, "komil inson" konsepsiyasini yanada chuqurroq o'rganish uchun uni boshqa sivilizatsiyalar, xususan, Markaziy Osiyo va islom falsafasidagi inson idealiga oid qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv turli madaniy modellar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, zamonaviy globallashuv sharoitida Yaponiyada shakllangan inson idealining amaliy ahamiyatini, ayniqsa ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlar faoliyatida qanday aks etayotganini empirik tadqiqotlar asosida o'rganish zarur.

Uchinchidan, falsafiy va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida "komil inson" tushunchasini statik ideal sifatida emas, balki tarixiy va ijtimoiy kontekstga bog'liq dinamik kategoriya sifatida talqin etish metodologik jihatdan muhim hisoblanadi.

To'rtinchidan, Yapon falsafiy merosini o'rganishda original manbalar, xususan yapon tilidagi asarlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlardan kengroq foydalanish, mavjud ilmiy xulosalarning yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiyaning tarixiy-falsafiy merosida shakllangan "komil inson" konsepsiyasi nafaqat milliy madaniyatning muhim elementi, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy kategoriya sifatida ham alohida ilmiy e'tiborga loyiqdir. Ushbu konsepsiyaning evolyutsion tahlili inson kamoloti haqidagi global ilmiy diskursni boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ono, S. Shinto: The Kami Way. Tokyo: Charles E. Tuttle Company, 1991.
2. Suzuki, D. T. Zen and Japanese Culture. Princeton: Princeton University Press, 1959.
3. Tucker, J. A. Confucianism and Tokugawa Culture. Princeton: Princeton University Press, 1989.
4. Nitobe, I. Bushido: The Soul of Japan. Tokyo–New York: Kodansha International, 2002.
5. Fukuzawa, Y. An Encouragement of Learning. New York: Columbia University Press, 2012.

6. Heisig, J. W., Kasulis, T. P., Maraldo, J. C. Japanese Philosophy: A Sourcebook. Honolulu: University of Hawai'i Press, 2011.